ADABIYOTSHUNOSLIK LUG‘ATIDA TIZIM VA IFODA

Boymurodova Sabinabonu Zayniddin qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, “Jahon adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi
Email: berdiyevasabina847@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyotshunoslik lug‘ati tuzilishi haqida so‘z borgan, adabiyotshunoslik lug‘atining tizimi va ifoda xususiyatlari haqida mulohazalar yoritilgan. Adabiyotshunoslik lug‘atining tizimi adabiyotshunoslikda mavjud bo‘lgan lug‘atlardan kelib chiqib qoliplashtirilgan. Adabiyotshunoslik lug‘atining makro hamda mikrostrukturasi ustida ish olib borilgan.

Kalit so‘zlar: lug‘at, maqola, tizim, ifoda, shakl, makro va mikrostruktura

Abstract: this article discusses the structure of a dictionary of literary studies, presenting observations on its system and the concepts it represents. The system of the dictionary is modeled based on existing dictionaries in the field of literary studies. Work has been carried out on both the macrostructure and microstructure of the dictionary.

Keywords: dictionary, entry, system, expression, form, macrostructure and microstructure.

Adabiyotshunoslik lug‘atlarida maqolalar tizimi lug‘atshunoslik va adabiyotshunoslik metodologiyasining kesishgan nuqtasi bo‘lib, u atama yoki istilohning ilmiy mohiyatini to‘laqonli ochib berishga xizmat qiladi. Lug‘at maqolasi – bu oddiy izoh emas, balki ma’lum bir adabiy-nazariy tushunchaning tarixiy taraqqiyoti, ilmiy talqini va badiiy amaliyotdagi o‘rnini qamrab oluvchi yaxlit leksikografik birlikdir.

Qadimiy manbalardan tortib to zamonaviy akademik nashrlargacha bo‘lgan davr tajribasi shuni ko‘rsatadiki, adabiyotshunoslik lug‘atlaridagi maqolalar qat’iy belgilangan makro va mikrotuzilma qoidalariga bo‘ysunadi.

Makrotuzilma tushunchasi lug‘atning umumiy tuzilishi va unda leksik birliklarning ko‘rib chiqilish usuli sifatida tushuniladi Ya’ni, bu leksikografik atama lug‘at sarlavhalarining joylashuvi – lug‘atning asosiy qismi ma’nosida qo‘llaniladi. Makrotuzilma tushunchasi lug‘atning ichki aloqalari va ko‘p qirrali tuzilishiga ega mustaqil tizim sifatidagi umumiy masalalari sifatida tushunilishi kerak.

Lug‘atning makrotuzilmasi leksik asar tuzilishining umumiy tamoyillari, sinonim, antonimik, omonimik va boshqalar munosabatlari, semantik maydonlar o‘rtasidagi tashqi munosabatlar, tematik va leksik guruhlar, lingvistik birliklarni lug‘atda joylashtirish tamoyillari va boshqalar bilan shakllanadi.

Ba’zan lug‘atning makrotuzilmasi shunchaki lug‘at ichidagi maqolalarning tuzilishi sifatida talqin qilinadi, bunda so‘zboshilar, kirish so‘zlari va ilovalar makrotuzilmadan tashqarida qoladi. Biroq, ko‘plab leksikograflar makrotuzilma tushunchasiga qo‘shilmaydilar. Lug‘atning barcha tarkibiy qismlarini, so‘zboshidan tortib ilovagacha kiritish qonuniy hisoblanadi, chunki ularning tarkibi va mazmuni lug‘atning xususiyatini belgilaydi.

Adabiyotshunoslik lug‘atlarida makrostruktura fanning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, quyidagi asosiy elementlar va tamoyillar asosida quriladi:

Makrostrukturaning birinchi bosqichi – lug‘atga qaysi terminlar kiritilishi va qaysilari chiqarib tashlanishini belgilashdir.

So‘z sof lingvistik, falsafiy yoki tarixiy tushuncha emas, aynan adabiyotshunoslik (adabiyot tarixi, nazariyasi, adabiy tanqid) obyekti bo‘lishi shart.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Makrostrukturaning eng ko‘zga ko‘rinadigan qismi - maqolalarning o‘zaro qanday ketma-ketlikda joylashganidir. Adabiyotshunoslik lug‘atlarida asosan ikki xil tizim qo‘llanadi:

Alifbo tartibi – an’anaviy va keng tarqalgan usul. Bu o‘quvchiga kerakli terminni tez topish imkonini beradi.

Lug‘at qaysi tilda tuzilgan bo‘lsa, shu til yozuvidagi alifbo tartibida lug‘atlar joylashtiriladi. Masalan, N.Hotamov, B. Sarimsoqovlarning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” rus grafikasida o‘zbek tilida yaratilganligi sababli krill alifbosidagi tartibdan foydalanilgan, ya’ni “А” harfidan “Я” harfigacha terminlar berilgan.

Mavzuviy tartib: Ba’zi o‘quv lug‘atlarida terminlar alifbo bo‘yicha emas, fanning tarmoqlari bo‘yicha makrostrukturaga birikadi. Masalan:

I bo‘lim: Adabiyot nazariyasi terminlari;

II bo‘lim: Adabiyot tarixi va oqimlari;

III bo‘lim: Badiiy nutq va uslubshunoslik

Biror termin tushuntirilgach, uning oxirida (Qarang: ...), (Solishtiring: ...) kabi ishoralar beriladi.

Shuningdek, adabiyotshunoslik lug‘atlarining makrostrukturasida:

So‘zboshi: lug‘atning qanday prinsiplar asosida tuzilganligi, qanday nazariy maktabga tayanilganligi tushuntiriladi.

Qisqartmalar ro‘yxati: lug‘at ichida ko‘p qo‘llaniladigan yordamchi so‘zlar yoki asarlar nomlarining qisqartma tizimi kiritiladi.

Adabiyotshunoslik lug‘atlarida makrostruktura butun lug‘atning umumiy qurilishi va terminlarning joylashuv tartibini anglatsa, mikrostruktura – bu alohida olingan bitta lug‘at maqolasining ichki tuzilishi, uning tarkibiy qismlari va axborotni taqdim etishdir.

Adabiyotshunoslik lug‘atlari maqolasining mikrostrukturasi quyidagi qismlardan tashkil topadi:

1. Sarlavhaga chiqarilgan so‘z

Bu izohlanayotgan terminning o‘zi bo‘lib, odatda qalin shriftda, bosh harflar bilan ajratib ko‘rsatiladi.

Agar terminning fanda unga mos variantlari bo‘lsa, ular yonma-yon beriladi (masalan: PEYZAJ, Tabiat tasviri)[1].

Ba’zi lug‘atlarda sarlavhaga chiqarilgan so‘zning urg‘usi va zarur bo‘lsa, orfoepik xususiyatlari ham shu qismda qayd etiladi.

2. Sarlavhaga chiqarilgan so‘zning etimologiyasi

Adabiyotshunoslik terminlarining aksariyati xalqaro (yunon, lotin) yoki mintaqaviy (arab, fors) manbalarga ega. Shu sababli, sarlavhaga chiqarilgan so‘zdan so‘ng darhol qavs ichida so‘zning qaysi tildan olingani va uning dastlabki leksik ma’nosi ko‘rsatiladi. Misol: KLASSITSIZM (lot. classicus — namunali, mumtoz)

VAZN (arab. — وزن‘lchov)[2]

Bu qism terminning asl lug‘aviy tabiati bilan uning adabiyotshunoslikdagi vazifasi o‘rtasidagi ko‘prikni qurib beradi.

Adabiyotshunoslik terminlarining etimologik xususiyati statistik tahlil qilinganda: sof o‘zbekcha terminlar: 15%-10%-10%; arab tilidan o‘zlashgan terminlar: 52%-48%-52%; fors tilidan o‘zlashgan terminlar: 8%-5%-5%; rus tilidan o‘zlashgan terminlar: 1%-0%-0%; fransuz tilidan o‘zlashgan terminlar:

[1] Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.56.
[2] Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 136, 73.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

1%-5%-4%; yunon tilidan o‘zlashgan terminlar: 17%-23%-20%; italyan tilidan o‘zlashgan terminlar: 1%-1%-1%; lotin tilidan o‘zlashgan terminlar: 2%-5%-4%; nemis tilidan o‘zlashgan terminlar: 0%-1%-1%; yapon tilidan o‘zlashgan terminlar: 0%-0%-1% tashkil qilishi aniqlangan.[3]

3. Ilmiy-akademik ta’rif

Bu qismda terminning adabiyotshunoslik fani doirasidagi qat’iy, ixcham va akademik ta’rifi beriladi. Ta’rifda ortiqcha so‘zlar, hissiy munosabat yoki mavhumlikka yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Tarixiy-nazariy evolyutsiyasi

Adabiy tushunchalar tarixan o‘zgaruvchan bo‘ladi. Terminning fanda paydo bo‘lish tarixi (kim birinchi marta fanga kiritgani);

Turli adabiy oqimlar (klassitsizm, realizm, modernizm) davrida termin ma’nosining qanday evrilishga yuz tutgani;

Klassitsizm (lat. classicus - namunaviy so‘zidan) — klassitsizm. XVII asrning boshlarida Yevropa mamlakatlari adabiyoti va san’atida yuzaga kelgan badiiy metod bo‘lib, bu metod XVII—XVIII asrlar fransuz dramaturgiyasida ko‘proq taraqqiy etdi…

5. Ichki tasnif

Tushuncha ichki tasnif qilinadi, turlari sanab o‘tiladi.

Masalan: “qofiya” terminida

She’riyatda qofiyaning bir qator ko‘rinishlari borligi aytilib, ularni ichki tasnifini keltiradi: to‘liq va to‘liqsiz qofiya; unlilar ohangdoshligigagina asoslangan assonans qofiya, undosh tovushlar ohangdoshligigagina asoslangan dissonans qofiya; rus she’riyatida ochiq yoki yopiq bo‘g‘in bilan tugashiga qarab ochiq – “женская рифма”, yopiq – “мужская рифма” mavjud.[4]

6. Misol keltirish

Bu adabiyotshunoslik lug‘atining boshqa fan lug‘atlaridan ajratib turuvchi eng asosiy xususiyatidir. Nazariy qoidalar va ta’riflar jonli badiiy matn bilan isbotlanishi shart.

Adabiyotshunoslik terminologiyasi murakkab, ko‘p qatlamli ilmiy tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimni tartibga solish, uni muayyan shaklda ifodalash va ilmiy muomalaga kiritish jarayonida lug‘atlar alohida o‘rin tutadi. Shu bois adabiyotshunoslik lug‘atlarining ichki tuzilishi va terminlarni izohlash usullarini tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abrams M. H. A Glossary of Literary Terms. Seventh Edition. –USA: Cornell University, 1999. – 682 p.
2. Childs, Peter and Roger Fowler. The Routledge Dictionary of Literary Terms. London and New York: Routledge Taylor and France Group. – 2006. –486p.
3. Minayeva L.V. English Lexicology and Lexicography. — New York: Higher school, 2003. –322 p.
4. Watson E. A. A study of selected English terms from 1650-1800. – N.Y., 1987. –247 b.
5. Webster’s New Explorer Dictionary of Word Origins. Springfield. –M.A.: 2004 . –540 p.

[3] Xudoyberdiyeva M. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida adabiyotshunoslik terminlarining berilishi: Fil. fan. nomz. … diss. – Toshkent, 2026. – B. 67.

[4] Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.390.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.